


# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

Al-Xorazmiy nomidagi Urganch Davlat Universiteti



Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lif yo'nalishi 101-  
guruhi talabasi Masharipova Rayhonning

”Maktabgacha ta'lifda mutaxasislikka kirish” fanidan

## KURS ISHI

Mavzu: Maktabgacha ta'lif konsepsiyasি

Topshirdi:



Masharipova R.

Qabul qildi:



Atajanova X.

Urganch 2015y.



## Mundarija:

|   |       |
|---|-------|
| <b>Kirish</b> .....   | 4-5   |
| <b>I BOB</b> Maktabgacha ta`limning ta`lim tizimida tutgan o`rni.....                         | 6     |
| 1.1. Maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etishning meyoriy asoslari.....                  | 6     |
| 1.2.O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim tizimining mazmun<br>mohiyati.....            | 7-8   |
| <b>II BOB</b> O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim tizimi konsepsiysi<br>mohiyati..... | 9     |
| 2.1. Maktabgacha ta`lim konsepsiyasining asosiy mazmuni.....                                  | 10-18 |
| 2.2. Maktabgacha ta`limni rivojlanishining asosiy mohiyati.....                               | 19-21 |
| <b>III. Xulosa</b> .....  | 22    |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar</b> .....  | 23    |

## Mazu: Maktabgacha ta`lim konsepsiysi

Reja:

### **Kirish.**

**I Bob** Maktabgacha ta`limning ta`lim tizimida tutgan o`rni.

- 1.1. Maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etishning meyoriy asoslari.
- 1.2.O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim tizimining mazmun mohiyati.

**II Bob** O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim tizimi konsepsiysi mohiyati.

- 2.1.** Maktabgacha ta`lim konsepsiyasining asosiy mazmuni.
- 2.2.** Maktabgacha ta`limni rivojlanishining asosiy mohiyati.

### **III. Xulosa.**

**Foydalanilgan adabiyotlar.**



## Kirish.

Mavzuning dolzarbligi :

O`zbekiston Respublikasida bolalarni maktab ta`limiga tayyorlashda maktabgacha ta`lim muassasalari va oila oldida turgan muammolar. Maktabgacha ta`limning maqsad va vazifalari. Davlat talablarida maktabgacha ta`lim-tarbiyaning mazmuni. Bolalarni maktabga tayyorlash fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim-tarbiya ishini davr talabi ekanligi. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarni rivojlantirish bosqichlari. Maktabgacha ta`lim muassasasida Davlat talablari asosida bolalarni maktabga tayyorlash. Maktabga tayyor bolaga qo`yiladigan davlat talablari. «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maktabgacha ta`lim. Maktabgacha ta`lim to`g`risidagi Nizomda maktabgacha ta`lim vazifalari. Maktabgacha ta`limni tashkil etish va maktabgacha ta`lim turiga pedagogik kadrlarni tayyorlash masalalari. Maktabgacha tarbiya konsepsiysi mazmuni. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma`naviy etukligiga qo`yiladigan davlat talablari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma`naviy jixatdan etukligiga qo`yiladigan minimal talablar. Bolalarning ma`naviy kamolotini tarbiyalashda oila va maxallaning roli.

Maktabgacha ta`lim bolaning sog`lom, hartomonlama kamol topib shakllanishini ta`minlaydi, unda o`qishga intilish hissini uyg`otadi, uni muntazam ta`lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta`lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta`lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondler faolishtirok etadi. Bolalarni maktab talimiga tayyorligini tashxislash usullari. Bolalarni maktab rejimiga tayyorgarligi. Bolaning normal rivojlanishi. 6 yoshli bolaning taxminiy kundalik rejimi. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tayyorgarlik. MTM si guruxlaridagi bolalarga ta`lim-tarbiya berishning maqsad va vazifalari. MTMda tarbiyalanayotgan bolalarning aqliy rivojlanishini aniqlash va mustaxkamlash. Aqliy rivojlanishni aniqlash



mashg`ulotlari. Didaktik (sensor) mashg`ulotlar, o`yinlar. MTMning turli guruxlarida bolalarni maktab ta`limiga jismoniy tomondan tayyorgarligini aniqlash.

Kurs ishining maqsadi: Maktabgacha ta`lim konsepsiyasini o`rgatish

Kurs ishining obyekti: Maktabgacha ta`lim konsepsiysi

Kurs ishining meto`dlari: Ilmiy, suhbat, eksperimental

Kurs ishining tuzilishi: Kirish, 2 bob, 4 porograflar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar



## I.Bob. Maktabgacha ta`limning ta`lim tizimida tutgan o`rni.

### 1.1. Maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etishning meyoriy asoslari

Maktabgacha ta`lim uzluksiz ta`limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta`minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta`lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta`lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta`limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish maktabgacha ta`lim muassasasi hamda shtatdagi tibbiyot xodimlari, shuningdek maktabgacha ta`lim muassasasiga biriktirilgan sog'liqni saqlash organlarining tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.


Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi va qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasiga bolalarni olib kelish va olib ketish qoidalari, maktabgacha ta`lim muassasasi binolarida xavfsizlikni tashkil etishga oid talablar, maktabgacha ta`lim muassasasida yong'in xavfsizligini tashkil etishga oid talablar, hudud xavfsizligiga bo'lgan talablar “Maktabgacha ta`lim muassasalarida bolalarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to'g'risida Nizom” bilan tartibga solinadi.

Maktabgacha ta`lim bolaning sog'lom, hartomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta`lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta`lim muasasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta`lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondler faolishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmoq shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmularini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida Bolalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

## **1.2.O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim tizimining mazmun mohiyati.**

Maktabgacha ta'lim muassasalari – O`zbekiston Respublikasidagi ta`lim muassalarining turi bo'lib, turli yo'nalishdagi maktabgacha bo'lgan davrdagi umumta`lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta`lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashni, o'qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog'lomlashtirishni ta`minlaydi.



Maktabgacha ta`lim muassasasini tashkil etish tartibi, faoliyatini tashkil etish va butlash, hamda maktabgacha ta`lim muassasasining mol-mulki va pul mablag'lari, javobgarligi, boshqaruvi va ta`lim jarayoni qatnashchilari to'g'risidagi kerakli ma`lumotlarni “O'zbekiston Respublikasida davlat maktabgacha ta`lim muassasasi to'g'risida Nizom” dan olishinigiz mumkin.

### O'zbekistonda maktabgacha ta`lim muassasalarining zamonaviy tizimi

Maktabgacha ta`lim muassasalari, faoliyat yo'naliishiga ko'ra, quyidagi turlarga bo'linadi:

- Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog'chasi, bolalar bog'chasi, uydagi bolalar bog'chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).
- Maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta`lim mussasasi (bolalar bog'chasi-maktab).
- Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo'naliishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta`lim muassasalari.



- Tarbiya jismoniy va ruxiy rivojlanishdagi og'ishlarni kvalifikatsion yaxshilov tiklovchi turdag'i bolalar bog'chasi.
- Tibbiyot gigiyena, profilaktika va sog'lomlashtirish, tadbir va protseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog'lomlashtirish bog'chasi.
- Birlashtirilgan turdag'i bolalar bog'chasi (birlashtirilgan turdag'i bolalar bog'chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog'lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko'rinishda kiradi).

## **II.Bob. O`zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta`lim tizimi konsepsiysi mohiyati.**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Maktabgacha tarbiya muassasasi - ta'lim-tarbiya muassasasi hisoblanadi, uning vazifasiga bola shaxsi asoslarini shakllantirish, uning bilishga doyr qiziqishlarini, madaniy-axloq-odob ehtiyojlarini, dastlabki mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, unda bilimga muhabbat uyg'otish, salomatligini mustahkamlash kiradi.

Maktabgacha ta'lim oilada va maktabgacha tarbiya muassasalarida amalga oshiriladi.

2. Maktabgacha tarbiya muassasasi "Ta'lim to'g'risida"gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni talablariga hamda maktabgacha ta'lim davlat standartlari tasdiqlangunga qadar maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish dasturiga muvofiq maktabgacha ta'lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi.

3. Maktabgacha tarbiya muassasasi o'z faoliyatida O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, "Ta'lim to'g'risida"gi K014/141 "8 va boshqa normativ hujjatlarga, shuningdek mazkur Nizomga amal qiladi.

4. Maktabgacha tarbiya muassasasi mazkur Nizom asosida ja-moaning umumiy yig'ilishida tasdiqlanadigan hamda uning faoliyati shart-sharoitlarini belgilab beradigan o'z Ustavini ishlab chiqadi.

5. Maktabgacha tarbiya muassasasi, idoraviy bo'y sunishidan qat'i nazar, yuridik shaxe hisoblanadi, o'z muhriga va nomi yozil-gan shtampga ega bo'ladi.

### **II. Maktabgacha tarbiya muassasasining vazifalari**

Maktabgacha tarbiya muassasasining asosiy vazifalari quyidagi hisoblanadi:

umuminsoniy kadriyatlarni, ijodiy tajribalarni, ko`p asrlik an'analarni hisobga olgan holda har tomonlama rivojlan-gan shaxsni shakllantirish maqsadida maktabgacha tarbiya va ta'lism sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;

pedagogika jarayonda sila va jamoatchilik tarbiyasining birligi g'oyasini ishlab chiqish va amalga oshirish, har bir ota-ona bilan maktabgacha tarbiya muassasasi o'rtasida huquqiy munosabatlarni o'rnatish;

maktabgacha ta'lism va tarbiya konsepsiysi va dasturi talablariga javob beradigan maktabgacha ta'lism mazmunini muntazam yangilab borish.

## **2.1. Maktabgacha ta`lim konsepsiyasining asosiy mazmuni.**

Maktabgacha tarbiya muassasasi, mulkchilik shakllari va idoraviy bo'y sunishidan qat'i nazar, o'z zimmasiga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

ta'lism va tarbiyaning ilg'or usullari asosida o'qitishning za-monaviy texnik vositalari, ko'rgazmali qo'llanmalar o'quv jarayoniga tatbiq etilishini ta'minlaydi;

bolalar bog'chasi xodimlarini va barcha ota-onalarni ushbu Nizom bilan tanishtiradi;

bolalar bog'chasiga biriktirilgan tibbiy muassasa bilan birgalikda bolalarning salomatligi mustahkamlanishi va muhofaza qilinishini ta'minlaydigan tadbirlarning bajarilishi va shart-sharoitlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

bolaning hissiy sihat-salomatligini ta'minlaydi;

xalqaro huquq va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari normalari bilan belgilangan ta'lism va tarbiya ishlarining sifatiga, ota-onalar huquqlariga, jamiyat va davlat manfaatlariga rioya qilinishi uchun javob beradi, ushbu normalar bo'yicha har bir bola quyidagi huquqlarga egadir:



kattalarning bolalar ehtiyojiga e'tibor va xurmat bilan mu-nosabat bo'lishi;

shaxsiy-hissiy munosabatda bo'lish ehtiyojining qondirilishi;

rivojlanishdagi mavjud nuqsonlar tuzatilishi yuzasidan malakali yordam olish;

o'z kadr-qimmatini himoya qilish;

kattalar tomonidan doimiy g'amxo'rlik ko'rsatish, ehtiyotsiz va malakasiz munosabatda bo'lishdan himoya qilish;

jismoniy va ruhiy zo'ravonlikning, shaxsni haqorat qilishning barcha shakllaridan himoya qilish,

fuqarolarning taklif va arizalari o'z vaqtida ko'rib chiqilishini tashkil etadi, ta'lim haqidagi qonunlarning buzilishini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'radi.

#### **IV. Maktabgacha tarbiya muassasasining huquqlari**

Maktabgacha tarbiya muassasasi:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan variativ, namunaviy majmuadan dasturlar tanlash;

tasdiqlash tartibi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgi-lanadigan o'z (mualliflik) dasturlari va uslubiyotini ishlab chiqish va o'z amaliy faoliyatida qo'llash;

maktab va boshqa ta'lim hamda ilmiy muassasalar bilan doi-miy aloqalar o'rnatish;

tajriba maydoni maqomiga ega bo'lish huquqini himoya qilish bilan mustaqil sinov ishlarida ishtirok etish va bu ishlarni olib borish;

maktabgacha tarbiya muassasalari ishini takomillashtirish, moddiy bazani mustahkamlash, xodimlarni ijtimoiy himoya qilishni ta'minlash bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun xalq ta'limini boshqarishning yuqori organlariga kiritish huquqiga egadir.

## V. Maktabgacha tarbiya muassasalari pedagog xodimlarining burchlari

Pedagog xodimlar:

bolalarni o'qitish va tarbiyalashni yuqori malakada amalga oshirishga; pedagogik axloq-odobga rioya qilishga, bolaning qadr-qimmatini xurmat qilishga, bolalarni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishga, ularni mehnatga muhabbat, ota-onaga mehr, atrof muxhitga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiya-lashga;

o'z kasb malakasi va pedagogik mahoratini doimiy ravishda takomillashtirishga majburdirlar.

Pedagog xodimlarning boshqa majburiyatları bolalar bog'chasi ustavi va malaka tavsiyanomalari orqali belgilanadi.

## VI. Maktabgacha tarbiya muassasalari pedagog xodimlarining huquqlari

Pedagog xodimlar:

o'z kasb mahorati, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, maktabgacha tarbiya muassasasini boshqarishda qatnashish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, kasb bilan bog'liq, bo'limgan vazifalarni bajarishni rad etish huquqiga egadirlar.

## VII. Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning huquq va burchlari

Ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar:

o'z bolalari uchun ta'lim va tarbiya shaklini tanlash, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari turini va ta'lim olib beriladigan tilni tanlash;

maktabgacha tarbiya bolalar muassasasi ma'muriyatidan maktabgacha tarbiya muassasasi Ustaviga muvofiq keluvchi zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

bola shaxsiga xurmat bilan munosabatda bo'lishni talab etish;

maktabgacha tarbiya bolalar muassasasida bolalarning hayoti va faoliyatini tashkil etishda faol ishtirok etish;

bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligi to'g'risida g'amxo'rlik qilish;

bolaning qadr-qimmatiga xurmat bilan munosabatda bo'lishga, unda mehnatsevarlik, yaxshilik, ezgulik tuyg'ularini, katta yoshdagilarga xurmat bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash;

belgilangan normativlarga ko'ra bolaning bog'chada b/lishi uchun haqni o'z vaqtida to'lash;

bolalarni oila sharoitida tarbiyalash uchun zarur shart-sha-roitlarni yaratish;

bolaning to'laqonli ovqatlanishini, unda shaxsiy gigiena ko'nikmalari tarbiyalanishini qat'iy kuzatib borish, bolani maktabgacha tarbiya muarsasasiga ozoda kiyingan holda olib kelish;

rejim doirasida bolani muassasaga o'zi uchun istalgan qulay vaqtda olib kelish va olib kelish huquqiga egadirlar.

### **VIII. O'quv-tarbiya jarayoni tuzilmasi va uni tashkil etish**

1. Bolalar muassasalarining asosiy turlari quyidagilar hisoblanadi:

bolalar yaslisi;

bolalar bog'cha-yaslisi;

bolalar bog'chasi;

xonardonlardagi bolalar bog'chasi (ham mustaqil muassasa, ham filial sifatida).

Ota-onalarning arizasi bo'yicha hokimlikning qarori bilan maktabgacha tarbiya muassasasida, shu jumladan, shartnomaga asosida, bolaning bog'chada kiska muddatda bo'lishi uchun guruhlar (sayrli, navbatchi guruhlar) ertalabki, kechki

soatlarda, shuningdek, shanba va yakshanba kunlari ochilishi mumkin. Bunda guruhlarda ota-onalar bolani uch soatgacha qoldirishlari mumkin. Bunda maktabgacha tarbiya muassasasiga doimiy qatnovchi bolalarning manfaatlari kamsitilmasligi kerak.

2. Ixtisoslashtirilgan maktabgacha tarbiya muassasalari va guruhlari:
  - nutqida nuqson bo'lgan (qulog'i eshitadigan) bolalar uchun;
  - eshitish qobiliyati zaif bolalar uchun;
  - ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun;
  - tayanch-harakat a'zolarida nuqson bo'lgan bolalar uchun;
  - ruhiy rivojlanishi kechikkan bolalar uchun;
  - aqli zaif bolalar uchun tashkil etiladi;
  - tuberkulyoz (sil) xastaligi endi ko'rinish bera boshlagan, sil xastaligining kichik va pasayib borayotgan shakllari bo'lgan bolalar uchun sanatoriya tipidagi maktabgacha tarbiya muassasalari;
  - tez-tez kasallanuvchi bolalar uchun;
  - virusli gepatit bilan og'rigan bolalar uchun, shuningdek, agar ularga ehtiyoj tug'ilsa, boshqa ixtisosdagi maktabgacha tarbiya mu-assasalari tashkil etiladi.

Maxsus maqsadli maktabgacha tarbiya muassasalarini tashkil etish tartibi, ular ishining o'ziga xosligi, ularga qabul qilish qoidalari, bolalar ta'lim-tarbiyasini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan tegishli yo'riqnomalar va dasturiy-uslubiy hujjatlar bilan belgilanadi. Yetim bolalar, ota-onasi-ning qarovisiz qolgan bolalar uchun bolalar uylari, mehribonlik uylari, maktab-internatlar huzurida maktabgacha tarbiya guruhlari tashkil etiladi, ularning maqomi tegishli nizomlar asosida belgilanadi.

3. Maktabgacha tarbiya muassasasini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat umumta'lif muassasalarini tashkil etish va tugatish tartibi haqidagi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

4. Maktabgacha tarbiya muassasasi quyidagilarga bo'linadi:



davlat muktabgacha tarbiya muassasalari (hokimlik qarori bilan tashkil etiladi);

idoraviy muktabgacha tarbiya muassasalari (idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning qarori bilan tashkil etiladi);

kooperativ muktabgacha tarbiya muassasalari ("Kooperasiya to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan tartibda tashkil etiladi);

aksionerlik muktabgacha tarbiya muassasalari (amaldagi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda aksionerlik korxonalari, tashkilotlari mablag'lari hisobidan tashkil qilinadi);

jamoatchilik asosida muktabgacha tarbiya muassasalari (yotoq-xonalar, turar joylardan foydalanish idoralari, madaniy va savdo markazlarida, shuningdek, oila ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda boshqa ko'rinishlarda tashkil etiladi);

xonadonlardagi muktabgacha tarbiya muassasalari (kooperasiya to'g'risidagi qonun hujjatlari va xonadonlardagi muktabgacha tarbiya muassasalari to'g'risidagi Nizomga muvofiq bir yoki bir ne-cha oila tomonidan tashkil qilinadi);

aralash muktabgacha tarbiya muassasalari (davlat, kooperativ-par, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va oilalar tomonidan ulush qo'shib shartnoma asosida tashkil etiladi).

5. Muktabgacha tarbiya muassasasi zamonaviy talablarga javob beradigan, iklim sharoitlarini, ekologik vaziyatni va tarkib topgan milliy an'analarni hisobga olgan holda maxsus loyiha bo'yicha qurilgan binoda tashkil etiladi. Umumiyo'nalishdagi muktabgacha tarbiya muassasasi uchun 140-160 urin, maxsus maqsadli muktabgacha tarbiya muassasasi uchun 90-120 urin maqbul deb hisoblanishi kerak.

6. Muktabgacha tarbiya muassasasi muassislar tomonidan Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan ro'yxat bo'yicha zarur inventar va jihozlar bilan ta'minlanadi.

7. Muktabgacha tarbiya muassasasining ish tartibi ota-onalar-ning istagi hisobga olingan holda xalq ta'limi bo'yicha Kengash hamda muktabgacha tarbiya muassasasi pedagoglari Kengashi bilan kelishgan holda xalq ta'limi boshqarmasi



(bo'limi)ning, maktabgacha tarbiya muassasasi qarashli bo'lgan korxona, muassasalar tashki-lotning taqdimnomasi bo'yicha hokimlikning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha tarbiya muassasasi yoki uning ayrim guruhlari bolalar xافتасига 5, 6, 7 kun kunduzi, sutka mobaynida yoki kiska muddat bo'ladigan tartibda, bir yoki ikki kunlik dam olish kunlari bilan ishlashlari mumkin. Xodimlarga dam olish kunla-ri o'zgaruvchi jadval bo'yicha beriladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasining, shu jumladan, uning ayrim guruhlari ishining davomiyligi, boshlanishi va tugashi ota-onalar ehtiyojini hisobga olgan holda belgilanadi. Ammo u ertalabki 6.30 dan barvaqt va kechki 21.00 dan kech bo'lmasligi kerak.

8. Maktabgacha tarbiya muassasasida bolalarni ovqatlantirish ish kuni davomiyligini hisobga olgan holda oziq-ovqat mahsulotlarining naturadagi normalariga muvofiq tashkil qilinadi. Bolalar 6 soatdan kam bo'ladigan guruhlarda ovqatlantirishni tashkil qilish, uning shakli va necha martaligi ota-onalar bilan kelishuvga binoan belgilanadi.

9. Maktabgacha tarbiya muassasasi pedagogik vazifalarni hal etish maqsadida pedagoglar Kengashi to'g'risidagi Nizomga muvofiq faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglar Kengashini tashkil etadi.

## **IX. Maktabgacha tarbiya muassasasini butlash**

1. Maktabgacha tarbiya muassasasining bolalar kontingenti xalq ta'limi organlari va boshqa muassislar tomonidan butlanadi.

2. Xalq ta'limi organlariga maktabgacha tarbiya muassasasi balansida bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning roziligi bilan bolalar o'rinalining bir qismini ota-onasi ushbu korxonada ishlamaydigan, ammo maktabgacha tarbiya muassasasi joylashgan hududida yashovchi bolalar bilan to'ldirish huquqi beriladi. Bunda bola tarbiyasi uchun haq ota-onadan davlat tomonidan belgilangan normativlarga muvofiq miqdorlarda olinadi.



3. Bolalarni davlat maktabgacha tarbiya muassasalariga qabul qilish, qo'llanmalar berish, maktabgacha tarbiya muassasasida bola uchun joy saqlash, bolalarni bog'chalarga joylashtirish bo'yicha qondirilmagan arizalarni hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining yo'rinqomasi bilan belgilanadi.

4. Ota-onaning ish joyi o'zgarishi munosabati bilan bolani maktabgacha tarbiya muassasasidan chiqarish (agar bu shartnomada ko'rsatilmagan bo'lsa) man qilinadi.

5. Guruhlarni boshqa yoshdagi guruhdan o'tgan bolalar bilan butlash o'quv yili so'ngida (avgust oyida), yangi qabul qilinayotganlar bilan butlash esa o'rinalar bo'shashiga qarab amalga oshiriladi.

6. Moslashtirish maqsadida bog'chaga yangi kelayotganlarni va kichik yoshdagi bog'cha bolalarini guruhlarga qabul qilish bosqichma-bosqich, bir oy davomida amalga oshiriladi.

7. Maktabgacha tarbiya muassasasida o'quv yili har yili 1 sentyabrdan boshlanadi.

## **X. Tibbiy xizmat ko'rsatish**

1. Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq maktabgacha tarbiya muassasasi bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish huquqiga ega.

Bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish shtatdagi yoki maktabgacha tarbiya muassasasiga maxsus biriktirilgan Tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiyot xodimlari maktabgacha tarbiya muassasasi ma'muriyati bilan birgalikda bolalarning hayoti, sog'lig'i va jismoniy rivojlanishi, davolash-profilaktika tadbirlarining

o'tkazilishi, sanitariya-gigiena normalariga, tarbiyalanuvchilarining ovqatlanishi sifati va tartibiga, ularga tushadigan jismoniy va aqliy og'irlikni muvofiqlashtirishga rioya qilish uchun javob beradi.

2. Tibbiyot xodimlari faoliyati ustidan nazorat qilish mahalliy sog'liq saqlash organlariga yuklanadi.

## **XI. Maktabgacha tarbiya muassasasi kadrlari**

1. Maktabgacha tarbiya muassasasining tuzilmasi va shtatlarini tegishli boshqaruv organi va muassis O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy shtatlarga tatbiqan belgilaydi.

2. Maktabgacha tarbiya muassasasi mudiri, idoraviy bo'ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, muassislar tomonidan, xalq ta'limini boshqarish organlari bilan kelishgan holda, maxsus oliy ma'lumotga va besh yildan kam bo'limgan pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi.

Katta tarbiyachi (tarbiyachi-metodist) xalq ta'limini boshqarish organlari bilan kelishgan holda muassislar tomonidan maxsus oliy ma'lumot va uch yildan kam bo'limgan pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslardan tayinlanadi.

3. Maktabgacha tarbiya muassasasining barcha toifadagi xodim-larining huquq va burchlari O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi bilan kelishgan holda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan malaka tavsiyanomalariga ko'ra belgilanadi.

4. Maktabgacha tarbiya muassasalarida lavozimlarni egallah Mehnat vazirligi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari federasiya-si. Kengashining 1994 yil 6 yanvardagi 1/1 (30-22)-son qaroriga muvofiq yozma shartnoma tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi.

5. Maktabgacha tarbiya muassasasi ma'muriyati ushbu muassasa qarashli bo'lgan tashkilotning rahbarlari, jamoat tashkilotlari, pedagoglar Kengashi bilan birgalikda xalq ta'limi organlari bilan kelishgan holda maktabgacha tarbiya muassasasi xodimlari-ni attestasiyadan o'tkazish bo'yicha qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydi, ularga o'z vaqtida zarur metodik yordam ko'rsatadi.

## 2.2. Maktabgacha ta`limni rivojlanishining asosiy mohiyati.

1. Davlat maktabgacha tarbiya muassasasini boshqarish yakka-boshchilik va o'zini-o'zi boshqarish prinsiplari asosida keng osh-koralik sharoitlarida amalgalashadi.
2. Mudir O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjalarda belgilangan tartibda maktabgacha tarbiya muassasasining butun faoliyatiga rahbarlik qiladi, bolalarning hayoti va salomatligi muhofaza qilinishi, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash uchun, maktabgacha tarbiya muassasasining tash-kiliy-pedagogik, moliyaviy-xo'jalik va boshqa faoliyat natijalari, jamoada ijobiy ma'naviy-ruhiy muhit yaratilishi uchun shax-san javob beradi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi mudiri amaldagi qonunchilik doirasida maktabgacha tarbiya muassasasi pedagogik xodimlari va ma'muriyatining kasb-kori va lavozim faoliyatlariga asossiz aralashuvga chek qo'yuvchi zarur chora-tadbirlarni ko'radi; maktabgacha tarbiya muassasasining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha tegishli organlarga takliflar kiritadi.

3. Mudir maktabgacha tarbiya muassasasi huquqi doirasida maktabgacha tarbiya muassasasining barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi, ko'rsatmalar beradi. Tarbiyachi-metodist, katta Tibbiyot hamshirasi, xo'jalik mudirining o'z huquqlari doirasida beradigan ko'rsatmalari ham barcha xodimlar tomonidan bajarilishi shart.

## XIII. Moliyaviy-xo'jalik faoliyat

1. Davlat maktabgacha tarbiya muassasasi byudjetdan yoki tarmoqdan mablag' bilan ta'minlash prinsipi asosida faoliyat ko'rsatadi. Bolalari maktabgacha

tarbiya muassasasida tarbiyalangani uchun ota-onalar tomonidan haq to'la amaldagi qonunchilikka binoan amalga oshiriladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasini mablag' bilan ta'minlash uchun hisob birligi sifatida bitta bolaning o'rtacha yillik ta'minoti qabul qilinadi.

Byudjetdan yoki tarmoqdan mablag' bilan ta'minlash normativlari vazirliklar va idoralar tomonidan bevosita ularga bo'ysunuvchi muassasalar uchun O'zbekiston Respublikasi halq ta'-limi vazirligi, Sog'lijni saylash vazirligi tomonidan Moliya vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarga muvofiq, ishlab chiqiladi (oziq-ovqat mahsulotlarining natural me'yori, jihozlar va uskunalar soni va boshqalar).

2. Quyidagilar maktabgacha tarbiya muassasasining qo'shimcha manbalari hisoblanadi:

davlat korxonalari va tashkilotlari, kooperativ korxonalar va tashkilotlar hamda aholi buyurtmasi bo'yicha tuzilgan shartnomalarga muvofiq moddiy tusdagi ishlar (xizmatlar) bajarilganligi uchun tushum;

bush yordamchi xonalarni, inshootlarni, asbob-uskunalarni ijara berishdan -tushgan mablag'lar;

davlat korxonalari, kooperativ va boshqa korxonalardan, jamoat tashkilotlaridan, shuningdek, ayrim fuqarolardan tushgan ixtiyoriy badallar va beriladigan moddiy boyliklar;

boshqa tushumlar.

Turli manbalardan tushgan barcha mablag'lar, mehnat shartnomasi bo'yicha aniq ijrochilarga mo'ljallangan puldan tashqari, maktabgacha tarbiya muassasasining daromadini tashkil etadi.

Maktabgacha tarbiya muassasasi bolalarga chet tillarni o'rnatish, xoreografiya, ritmik gimnastika bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish, shuningdek, belgilangan tartibda ruxsat etilgan boshqa qo'shimcha xizmat turlarini ham bajaradi.



3. Maktabgacha tarbiya muassasasining ta'minoti bo'yicha buxgalter, hisob-kitobi markazlashtirilgan buxgalteriyalar yoki maktabgacha tarbiya muassasasi tomonidan mustaqil ravishda yuritiladi.

Maktabgacha tarbiya muassasasining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini taftish qilish belgilangan tartibda shu ishga vakolatli organlar tomonidan o'tkaziladi.

4. Maktabgacha tarbiya muassasasining mehnatni tashkil etish va unga haq, to'lash borasidagi huquqi Yagona tarif setkasi va shu masalaga oid boshqa normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

## Xulosa

Maktabgacha tarbiya muassasasi zamonaviy talablarga javob beradigan, iklim sharoitlarini, ekologik vaziyatni va tarkib topgan milliy an'analarni hisobga olgan holda maxsus loyiha bo'yicha qurilgan binoda tashkil etiladi. Umumiy yo'nalishdagi maktabgacha tarbiya muassasasi uchun 140-160 o`rin, maxsus maqsadli maktabgacha tarbiya muassasasi uchun 90-120 o`rin maqbul deb hisoblanishi kerak. Maktabgacha tarbiya muassasasi muassislar tomonidan Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan ro'yxat bo'yicha zarur inventar va jihozlar bilan ta'minlanadi. Maktabgacha tarbiya muassasasining ish tartibi ota-onalar-ning istagi hisobga olingan holda xalq ta'limi bo'yicha Kengash hamda maktabgacha tarbiya muassasasi pedagoglari Kengashi bilan kelishgan holda xalq ta'limi boshqarmasi (bo'limi)ning, maktabgacha tarbiya muassasasi qarashli bo'lgan korxona, muassasa, tashki-lotning taqdimnomasi bo'yicha hokimlikning qarori bilan belgilanadi. Maktabgacha tarbiya muassasasi yoki uning ayrim guruhlari bolalar xafatasiga 5, 6, 7 kun kunduzi, sutka mobaynida yoki qiska muddat bo'ladigan tartibda, bir yoki ikki kunlik dam olish kunlari bilan ishlashlari mumkin. Xodimlarga dam olish kunla-ri o'zgaruvchi jadval bo'yicha beriladi. Maktabgacha ta`lim muassasasida ta`lim-tarbiya ishini davr talabi ekanligi. Maktabgacha ta`lim muassasasida bolalarni rivojlantirish boskichlari. Maktabgacha ta`lim muassasasida Davlat talablari asosida bolalarni maktabga tayyorlash. Maktabga tayyor bolaga qo`yiladigan davlat talablari. «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da maktabgacha ta`lim. Maktabgacha ta`lim to`g`risidagi Nizomda maktabgacha ta`lim vazifalari. Maktabgacha ta`limni tashkil etish va maktabgacha ta`lim turiga pedagogik kadrlarni tayyorlash masalalari. Maktabgacha tarbiya konsepsiysi mazmuni. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma`naviy yetukligiga qo`yiladigan davlat talablari. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma`naviy jixatdan etukligiga qo`yiladigan minimal talablar. Bolalarning ma`naviy kamolotini tarbiyalashda oila va maxallanening ro`li.





## **Adabiyotlar:**

- 1.Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent, O'zbekiston, 1994.
- 2.Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
- 3.Barkamol avlod orzusi Tuzuvchilar: SH.Qurbonov, R.Axlitdinov, H.Saidov. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1999.
- 4.Pedagogika O'quv qo'llanma. A.Munavvarov tahriri ostida. – Toshkent, O'qituvchi, 1996.
- 5.Oliy ta'lif: me'yoriy hujjatlar to'plami.- Toshkent: SHarq nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001. – 18-52-betlar.
- 6.Ochilov M., Ochilova M. O'qituvchi odobi. – Toshkent, O'qituvchi, 1998.
7. Karimov I.A. O'zbekistonnng o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – Toshkent, O'zbekiston, 1992.
8. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lif to'g'risida»gi Qonuni Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, SHarq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
9. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent, Xalq merosi nashriyoti, 1993.
10. Pedagogika A.Q.Munavvarovaning umumiyl tahriri ostida. - Toshkent, O'qituvchi, 1993.
11. Ziyomuhamedov B. Ma'rifikat asoslari. – Toshkent, CHinor ENK, 1998.
12. Podlaso'y I.P. Pedagogika. V 2 kn. Kn. 2. – Moskva, Vlados, 1999.